



\_\_\_\_\_ hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
fizika fani o'qituvchisi

\_\_\_\_\_ning  
20\_\_-20\_\_-o'quv yiliga 7-sinflar  
uchun I chorak

**DARS**  
**ISHLANMALARI**

**“TASDIQLAYMAN”**  
O‘IBDO‘ \_\_\_\_\_

**20\_\_\_-20\_\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan 7-sinf fizika fanidan I chorak  
taqvimiy mavzu rejasi**

| <b>№</b> | <b>Mavzu nomi</b>                                                                   | <b>Soat</b> | <b>Sana</b> | <b>Izoh</b> |
|----------|-------------------------------------------------------------------------------------|-------------|-------------|-------------|
| 1.       | Fizika fani taraqqiyoti tarixida O‘rta Osiyo olimlarining tutgan o‘rni              | 1           |             |             |
| 2.       | Fizika sohasida O‘zbekistonda ilmiy maktab yaratgan fizik olimlar                   | 1           |             |             |
| 3.       | Fizik kattaliklar. Xalqaro birliklar sistemasi(SI)                                  | 1           |             |             |
| 4.       | Fizikada tadqiqot metodlari                                                         | 1           |             |             |
| 5.       | Skalyar va vektor kattaliklar. Masalalar yechish.                                   | 1           |             |             |
| 6.       | Mexanik harakat                                                                     | 1           |             |             |
| 7.       | Kinematikaning asosiy tushunchalari                                                 | 1           |             |             |
| 8.       | To‘g‘ri chiziqli tekis harakatda tezlik va yo‘l                                     | 1           |             |             |
| 9.       | <b>1-BSB (30 ball)</b>                                                              | 1           |             |             |
| 10.      | Masalalar yechish                                                                   | 1           |             |             |
| 11.      | Notekis harakat                                                                     | 1           |             |             |
| 12.      | <b>Laboratoriya ishi.</b> Notekis harakatning o‘rtacha tezligini aniqlash           | 1           |             |             |
| 13.      | Masalalar yechish                                                                   | 1           |             |             |
| 14.      | Aylana bo‘ylab harakat. Masalalar yechish.                                          | 1           |             |             |
| 15.      | Massa va uning birliklari                                                           | 1           |             |             |
| 16.      | Zichlik va uning birliklari                                                         | 1           |             |             |
| 17.      | <b>2-BSB. Laboratoriya ishi.</b> Turli shakldagi jismlarning zichliklarini aniqlash | 1           |             |             |
| 18.      | <b>1-CHSB (40 ball). Masalalar yechish</b>                                          | 1           |             |             |

|       |  |  |  |  |
|-------|--|--|--|--|
| Sana: |  |  |  |  |
| Sinf: |  |  |  |  |

**Mavzu: Fizika fani taraqqiyoti tarixida O'rta Osiyo olimlarining tutgan o'rni**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** atrofimizda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni hamda fizika fani ko'plab sohalar rivojlanishida jiddiy ahamiyatga ega ekanligi tushuntirish, ular mavzu asosida kerakli bilim va ko'nikmalar hosil qilish, mavzuga oid tarqatilgan topshiriqlarni yakka va guruh holatida o'rganib, o'zlashtirishga erishish. Suhbat-muhokama orqali o'quvchilarning ongi mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini nazorat qilish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarda qiziquvchanlik, topqirlik, hozirjavoblik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish, mustaqillikka va ijodkorlikka o'rgatish, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish

**Rivojlantiruvchi:** O'zbekiston Respublikasida sog'lom, jismonan baquvvat, bilimli, ma'naviy-axloqiy yetuk, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish.

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

darslikda keltirilgan fizik atamalarni, qonunlarni, qoidalarni og'zaki va yozma tarzda aniq, tushunarli bayon qila olish;

boshqalarga tushuntirib bera olish va yoza olish, fizik kattaliklarning xorijiy tilda aytilishi va yozilishini bilish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

darslik va turli masalalar kitobidan, kutubxona, resurs markazi manbalaridan o'ziga kerakli ma'lumotlarni izlab topa olishi va ulardan foydalana olishi hamda fizik birliklarni boshqa ulushli va karrali birliklarga, jadval ko'rinishdagi ma'lumotlarni, grafik ko'rinishiga (va aksincha) aylantira olish.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

**Darsning borishi:**

| №           | Bo'limlar                                         | Vaqt             |
|-------------|---------------------------------------------------|------------------|
| 1           | Tashkiliy qism                                    | 3 daqiqa         |
| 2           | O'tgan mavzuni mustahkamlash                      | 5 daqiqa         |
| 3           | Yangi mavzu bayoni                                | 15 daqiqa        |
| 4           | Yangi mavzuni mustahkamlash                       | 10 daqiqa        |
| 5           | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa        |
| 6           | Uyga vazifa                                       | 2 daqiqa         |
| <b>Jami</b> |                                                   | <b>45 daqiqa</b> |

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**



O'rta Osiyo allomalari tabiiy fanlar, astronomiya, ma te-matika va falsafa fanlari bo'yicha izlanish olib borib, bizga boy ilmiy me'ros qoldirgan. IX–XVI asrlarda Muhammad al Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Ar Roziy, G'iyosiddin Koshiy kabi allomalarimiz yashab ijod qilgan. Fizika fani rivojiga munosib hissa qo'shgan buyuk qomusiy allomalarimizning ayrimlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Al-Xorazmiy Yevropada Xorazmiy nomi bilan tanilgan. Xorazmiy astronomiya bilan

shug‘ullanib, mashhur astro-nomik jadvali “Zij”ni yozgan. Uning “Zij”i o‘rta asrlardagi astro-nomiyaga oid dastlabki asar bo‘lib, 37 bobdan iborat va 116 ta jadvalni o‘z ichiga oladi. Unda turli taqvimlar, xronologiya (voqeliklar ketma-ketligi haqidagi ta’limot), Quyosh, Oy, say-yoralarning harakati, burjlar va boshqalar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Forobiy Sirdaryo bo‘yidagi qadimgi O‘tror (Forob) shahri-da dunyoga kelgan. Forobiy fan sohaslarida o‘chmas iz qoldir-gan qomusiy olimdir. Forobiyning ilmiy izlanishlari fizika, kimyo, tibbiyot, bio-logiya fanlariga bag‘ishlangan. Olim osmon jismlari bilan yerdagi hodisalar o‘rtasidagi ta-biiy aloqalarni, bulutlar va yomg‘irlar paydo bo‘lishi, Oy tutili-shini tushuntirgan. U fizikaga oid “Fizika usullari haqida kitob” nomli asar yozgan.

Abu Ali ibn Sino astronomiya, matematika, falsafa, fizika, kimyo, tib va musiqa kabi ko‘plab sohalarda izlanishlar olib borgan. U mexanikaga ham qiziqib, Nyutondan 700 yil oldin inersiya tamoyilini tushuntirib bergan. “Kasri mayl” (harakat qilishga tayyorgarlik) tushunchasini kiritgan. Ibn Sino biror to‘siq bo‘lmasa, jism uzluksiz harakatlanishi mumkinligini tushuntirgan.

O‘rta asr Sharq olimlari orasida Abu Rayhon Beruniy-ning ilmiy me’rosi alohida o‘rin tutadi. Beruniy 973-yilda Xorazm ning qadimiy poytaxti Kat shahrida tug‘ilgan (hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Beruniy shahri). Yoshlik davri-dayoq unda ilm-fanga qiziqish katta bo‘lgan. Beruniy yashagan davrda eksperimental (tajribalar-ga asoslangan) fanlar bilan shug‘ullanish keng rivojlangan. Beruniyning fizika sohasida olib borgan izlanishlari va tad-qiqotlari mexanika, mineralogiya, issiqlik, yorug‘lik, elektr, magnetizm, akustika masalalariga bag‘ishlangan. Abu Rayhon Beruniy: – o‘lchov birliklari; – tezlik, chiziqli va burchakli tezlik; – moddalar xossalari o‘rgangan; – moddalarning zichligini aniqlash bo‘yicha tajribalar olib borgan; – tutash idishlar, favvora, quduqlar va oddiy mexanizmlar-ning ishlash prinsiplarini o‘rgangan; – bo‘shliq (vakuum), atmosfera bosimi, konveksiya, zarra-chalar orasidagi tortishish kuchi haqida o‘z fikrlarini bildirgan. Beruniy yorug‘lik nurini “moddiy zarrachalar dastasi” deb ta’kidlaydi. Yorug‘likning sinishi va qaytishi hodisasini tushun-tirgan.



#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Fizika faniga hissa qo‘shgan yana qaysi O‘rta Osiyo olimlarini bilasiz? Ularni o‘rtoqlaringizga ay-tib bering.
2. Buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosini o‘rganish maq-sadida yurtimizda qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
3. Buyuk ajdodlarimiz nomi berilgan joylar haqida ma’lumotlar to‘plang.

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_  
 (imzo) (sana)

|              |  |  |  |  |
|--------------|--|--|--|--|
| <b>Sana:</b> |  |  |  |  |
| <b>Sinf:</b> |  |  |  |  |

## **Mavzu: Fizika sohasida O‘zbekistonda ilmiy maktab yaratgan fizik olimlar**

### **Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** atrofimizda sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlarni hamda fizika fani ko‘plab sohalar rivojlanishida jiddiy ahamiyatga ega ekanligi tushuntirish, ular mavzu asosida kerakli bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, mavzuga oid tarqatilgan topshiriqlarni yakka va guruh holatida o‘rganib, o‘zlashtirishga erishish. Suhbat-muhokama orqali o‘quvchilarning ongi mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligini nazorat qilish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarda qiziquvchanlik, topqirlik, hozirjavoblik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish, mustaqillikka va ijodkorlikka o‘rgatish, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini o‘stirish

**Rivojlantiruvchi:** O‘zbekiston Respublikasida sog‘lom, jismonan baquvvat, bilimli, ma’naviy-axloqiy yetuk, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish.

### **O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

### **O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

### **O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

doimiy ravishda o‘zini o‘zi jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganishi, o‘z xatti-harakatini adekvat baholash va mustaqil qaror qabul qila olish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

sinfda, maktabda, oilada, mahallada va jamiyatda o‘tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, o‘zaro munosabatlarda muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

### **Darsning borishi:**

| <b>№</b>    | <b>Bo‘limlar</b>                                  | <b>Vaqt</b>      |
|-------------|---------------------------------------------------|------------------|
| <b>1</b>    | Tashkiliy qism                                    | 3 daqiqa         |
| <b>2</b>    | O‘tgan mavzuni mustahkamlash                      | 5 daqiqa         |
| <b>3</b>    | Yangi mavzu bayoni                                | 15 daqiqa        |
| <b>4</b>    | Yangi mavzuni mustahkamlash                       | 10 daqiqa        |
| <b>5</b>    | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa        |
| <b>6</b>    | Uyga vazifa                                       | 2 daqiqa         |
| <b>Jami</b> |                                                   | <b>45 daqiqa</b> |

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

### **III. Yangi mavzu bayoni:**

Sodiq Azimov – fizik olim, O‘zbekiston Respublikasi Fan-lar akademiyasi akademigi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati. S.Azimov yadro fizikasi, yuqori energiyalar fizikasi sohala-rini rivojlantirgan olimlardan biri. Olim ekologik toza energiya manbalarini rivojlantirish bilan bir qatorda katta Quyosh pechi(sandon)ni yaratishda tashab bus ko‘rsatgan. S. Azimov rahbarligida 1988-yili Tosh-kent viloyati (Parkent tumani)dagi qurilish maydonida katta Quyosh sandoni ishga tushirilgan. Akbar Otaxo‘jayev – fizik olim, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati. Olim suyuqliklarning fizik xossalarini

optik usullar yordamida o'rganan.

Ubay Orifov – fizik olim, davlat va jamoat arbobi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi. Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati. Olimning asosiy ilmiy ishlari fizik elektronika, yadroviy va radiatsion fizika, gelioenergetika sohalariga bag'ishlangan. **Muxtor Saidov** Muxtor Saidov – fizik olim, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Rossiya Federatsiyasi texnologiya fanlari Akademiyasi akademigi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti hamda O'zbekiston Davlat mukofoti laureati. Olimning ilmiy ishlari yarimo'tkazgichlar materialshunosligi va qattiq jismlar elektronikasi, yorug'lik energiyasini elektr energiyasiga aylantiruvchi yarimo'tkazgich asboblarning fizikasi va texnologiyalari muammolarini yechishga bag'ishlangan.

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati. Olim fizika sohasining akustika, yadro fizikasi, optika va lazer fizikasi kabi yo'nalishlarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. **Behzod Yo'ldoshev** Behzod Yo'ldoshev – fizik olim, davlat va jamoat arbobi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi. Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati. Olim Vashington (AQSh) va Kembrij (Buyuk Britaniya) universitetlari faxriy doktori, Islom dunyosi fanlar akademiyasi (The Islamic World Academy of Sciences, IAS) akademigi, Birlashgan yadro tadqiqotlari instituti (Dubna shahri, Rossiya) faxriy doktori, Xalqaro fanlar akademiyalari assotsiatsiyasi (MAAN) akademigi. Olimning ilmiy tadqiqot ishlari elementar zarralar fizikasi, yadro fizikasi, sanoat, qishloq xo'jaligi va tibbiyot sohalarida yadro texnologiyalaridan foydalanish kabi masalalarni qamrab olgan.



*B. S. Yo'ldoshev  
(1945)*



*P. Q. Habibullayev  
(1936–2010)*



*M. S. Saidov  
(1930–2020)*

#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Katta Quyosh sandoni qanday maqsadda qurilgan?
2. O'zR FANing academy.uz saytida mamlakatimizda fizika sohasida ilmiy izlanish olib borayotgan olimlar ilmiy faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan. Ular bilan tanishing. Qaysi olimning ilmiy faoliyati sizda ko'proq qiziqish uyg'otdi?

**V. Darsni yakunlash:** o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO':

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)

[Zokirjon.com](http://Zokirjon.com). veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

**Zokirjon Admin bilan**

**90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi**

**39 listdan iborat fizika fanidan 7-sinf I chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.**




Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***  
***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**